

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va shakllari

ANNOTATSIYA. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish va uni pedagogik tashkil etishning tizimini aniqlash imkonini beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish didaktik asosida “bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi pedagogik shart-sharotilarini”ni tahlil qildik.

TAYANCH IBORALAR: Tadqiqotda belgilangan yetakchi vazifalarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini motivatsion mazmunva operatsion jihatdan kasbiy tayyorlashning pedagogik yo‘llari va vositalarini tahliliy tavsiflaydi. Bunda eng muhim masalasi sifatida quyidagilarni bayon etish lozim hisoblanadi.

АННОТАЦИЯ. Профессиональная подготовка будущего учителя музыки позволяет изучить педагогические условия и определить систему ее педагогической организации. Проанализированы «педагогические условия профессиональной подготовки будущих учителей музыки» на дидактической основе повышения профессиональной подготовки будущих учителей музыки.

ОСНОВНЫЕ ФРАЗЫ: Организационные формы реализации основных задач, определенных в исследовании, аналитически описывают педагогические пути и средства профессиональной подготовки будущих учителей музыки с точки зрения мотивационного содержания и оперативной деятельности. В качестве наиболее важного вопроса следует отметить следующее.

Musiqiy nuqtai nazardan:

- bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘qituvchi-xonanda sifatida kasbiy tayyorgarligi, mohiyati, mantiqiy va mazmuniy tuzilishi hamda ilmiy tahlil tamoyillaridan xabardor bo‘lish;
- bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘qituvchi-sozanda sifatida kasbiy tayyorgarligi, mohiyati, mantiqiy va mazmuniy tuzilishi hamda ilmiy tahlil tamoyillaridan xabardor bo‘lish;
- bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-nazariy bilimlar bilimdoni sifatida kasbiy tayyorgarligi, mohiyati, mantiqiy va mazmuniy tuzilishi hamda ilmiy-amaliy tahlil tamoyillaridan xabardor bo‘lish.

Pedagogik nuqtai nazardan:

- bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi o‘zida kasbiy-amaliy kompetensiyalarini amalga oshirish qobiliyatini takomillashtirishi;
- kasbiy tayyorgarlik darajasidagi musiqa o‘qituvchisi sifatida o‘zida kasbiy tafakkurni takomillashtirishi;

- musiqiy pedagogik faoliyatni bilish va o‘zgartirishga kasbiy, shaxsiy va ijodiy yondashuvni takomillashtirishi;

- musiqa pedagogikasi muammolarini ilmiy-nazariy tushunish bilan bog‘liq kasbiy bilim, ko‘nikma, malakaviy kompetensiyalar faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rib chiqish zarur.

O‘zbek xalq qo‘sishlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy maqsadiga muvofiq – bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘rtasida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish bakalavriat talabalarining individual ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. O‘zbek xalq musiqa ijodi fanining mazmunini o‘zlashtirishda ushbu muammoni hal qilish muayyan mantiqda amalga oshiriladi, uning tuzilishi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

a) musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmuni haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy tahlilning mohiyati, tuzilishi va tamoyillari haqidagi nazariy tushunchalar, uning asosida mustaqil yondashuvlar asosida professional fikrlashning yangi shakliga ega bo‘ladilar;

b) kasbiy tahlil qobiliyatini shakllantirish, dastlabki ko‘nikmalar tahlilini qo‘llash, nota adabiyotlarini o‘rganish barobarida musiqiy asarlar bilan tanishadilar;

v) bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining transformatsion faoliyati bu – kasbiy tahlilning natijasi va maqsadi bo‘lib, turli darajalarda namoyon bo‘ladi (sub’ektiv transformatsion, ob’ektiv transformatsion, bilvosita transformatsion).

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish va tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi:

huquqiy-me’yoriy ta’midot: DTS, malaka talablari, o‘quv (ishchi, talaba) reja, fan dasturlari va boshqa me’yoriy hujjatlar;

moddiy-texnik ta’midot: didaktik vositalar (ta’lim resurslari), musiqiy cholg‘ular, smart doska, metronom;

axborot dasturiy ta’midot: o‘quv jarayonining boshqaruvi platformasi, bulutli resurslar, tyuner, nota muharrir dasturlari, musiqiy cholg‘ular mobil ilovasi;

ilmiy pedagogik ta’midot: yuqori malakali ilmiy, ilmiy pedagogik kadrlar, mohir sozanda va xonandalar, bastakor, kompozitor, dirijyor, musiqashunos, etnomusiqashunoslar.

Yuqorida tilga olingan vazifalar talabalarning kasbiy tayyorgarligining har bir bosqichida o‘zaro aloqadorlikda, qo‘llanilayotgan barcha pedagogik shakl va vositalar orqali hal etiladi va bularning mazmuni real pedagogik shart-sharoitlarga muvofiq ijodiy qayta ko‘rib chiqildi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi pedagogik shart-sharoitlarining tuzilishi va mazmunini aniqlashda inson faoliyatida hissiy-ixtiyoriy, kognitiv va operatsion jihatlar birligi haqidagi ilmiy fikrning pozitsiyasi katta ahamiyatga

ega bo‘ladi. Bu o‘rinda V.A.Slasteninning ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidagi g‘oyalari amaliyotga keng tatbiq etilgan. Bugungi kunda kasbiy pedagogik faoliyatning tarkibi va mazmuni haqidagi tushuncha biz uchun uncha yangilik emas. Biroq ushbu pedagogik shart-sharoitlar bu borada hal qiluvchi rol o‘ynashini ham unutmasligimiz lozim. Ushbu konsepsiya ko‘ra, kasbiy faoliyatga tayyorlik bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish muammosidagi asosi bo‘lib, uning ijtimoiy faoliyatining tizimli tavsifi sifatida pedagogik shart-sharoitning integral ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur konsepsiya ayni paytda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-ijodiy pedagogik faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy mashg‘ulotlar tarkibida quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarni aniqlashga sharoit yaratdi. Bular: motivatsion va qiymat komponentlaridir. Bu jarayonni amalga oshirishda, avvalambor, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim. Jumladan, qiziqish uyg‘otish va musiqiy-pedagogik voqelikni metodologik tushunish bilan bog‘liq kasbiy bilim va faoliyatga ehtiyojni takomillashtirishga qaratilgan komponentlar:

- bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan musiqiy ta’lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotini bilish va o‘zgartirishga kasbiy yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlarning roli, mohiyati va darajalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirishga hissa qo‘sishi;

- o‘zgartirishga kasbiy yo‘naltirilgan metodologik yonashuvning roli, mohiyati va darajalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish hissi;

- musiqa o‘qituvchilarining malakasini oshirish va ushbu bilimlarni kasbiy ahamiyatga ega muammolarni o‘rganish uchun ijodiy tajriba bilan bog‘liq jarayonlaridir.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarning mazmun mohiyati nuqtai nazaridan o‘rganish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ta’lim jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash, unda qo‘llaniladigan shakl va vositalarning samaradorligini aniqlash bo‘yicha aniq rejali ishlarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Pedagogika sohasi musiqa ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda taqdim etiladigan yondashuv va uni amalga oshirishning maxsus tamoyillarini belgilash va asoslashni talab qiladi. Bular kasbiy tayyorgarlikni motivatsion-qiyomatli, asosli va operatsion jihatlarining birligi; kasbiy yo‘nalish; bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining individual va shaxsiy kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirish. Bu yerda faqat bakalavriat talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish prinsiplarga asoslangan holda amalga oshirish lozimligini ta’kidlab o‘tamiz. Shuningdek, ular mavzuning yetakchi vazifalarini bajarishga asoslanadi,

bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining pedagogik, kasbiy va ijodiy faoliyatini belgilaydi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etishning pedagogik shakllari oliy ta’lim tizimida an’anaviy o‘qitish usullari hisoblanadi. Biroq ularni asosiy vazifalari, mazmunini amalga oshirishdagi faoliyat ayrim omillarga bog‘liq. Bular dars shakllarining har birida shunday pedagogik shart-sharoit yaratish kerakki, unda zarur kasbiy bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirish “ta’lim beruvchi” va “ta’lim oluvchilar”ning tabiiy sharoitda “jonli” ijodiy hamkorligida amalga oshirilishi shart. Bu holat bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida individual-shaxsiy, kasbiy-ijodiy va pedagogik tajribani takomillashishiga imkon yaratadi. Mazkur shakllarning yana bir o‘ziga xos tomonlari shundaki, ularning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirib, yaxlit majmuaga ega bo‘lishidir. Masalan, auditoriya mashg‘ulotlari davomida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha muammoli vaziyat o‘rtaga tashlanadi va bakalavriat talabalarining o‘zaro munozaralari tashkil etiladi. Dialogik aloqalar yuzaga keladi. Unda individual ijodiy mulohazalar, amaliy-ijodiy jarayonlar, intellektual faoliyat jamoaviy ko‘rinishlarda bir-biri bilan birlashadi. Boshqa tomondan amaliy, seminar, laboratoriya, yakka tartibdagi mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fikr-mulohazalari va xulosalari o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilib, chuqurlashtiriladi. Yangi nazariya, g‘oyalar, fikr-mulohazalar, aytim ijrosi bo‘yicha xulosalar umumlashadi. Natijada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining o‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning mazmun birligi haqidagi g‘oyalarni yaratishga yordam beradi, o‘quv, ta’lim pedagogik jarayon ishtirokchilarining har biriga shaxsiy qadriyat, unga ijodiy munosabat ko‘rsatish uchun qulay sharoit yaratadi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida dars mashg‘ulotlarining har biri bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish vazifalari va mazmunini amalga oshirish bilan bir vaqtida o‘zining maxsus vazifasini bajaradi. Ya’ni dars mashg‘ulotlarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarini o‘zlashtirishiga yordam bersa-da, seminar, amaliy, laboratoriya, yakka tartibdagi mashg‘ulotlar birinchi navbatda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni uslubiy tushunish va hal qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy faoliyatdaqo‘llashga yordam beradi. Qolaversa, individual shakllarda (kollokvium, maslahat, mustaqil ta’lim va boshqalar), egallagan kasbiy bilim va faoliyat usullarini bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining mustaqil izlanish va ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘llashning ijodiy tajribasi takomillashtiriladi va boyitiladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etish shakllari har birining funksional

jihatlarini quyida batafsil ko‘rib chiqish orqali masalani yanada oydinlashtiramiz:

mazkur holatlarda ma’ruza mashg‘ulotlaridagi asosiy maqsad “tayyor” bilimlarni uzatish emas, chunki bu bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini boshqa odamlarning fikrlari va his-tuyg‘ularining passiv iste’molchilariga aylantiradi xolos. Biroq, ularning mustaqil “kashfiyoti” tajribasini izchil o‘rganish va to‘plashdir. Keyingi paytda ma’ruzalarini tashkil etishda turli taqdimot va audio, video vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bular aslidailm-fan panoramasi (ko‘rinishi), ilm-fan tarkibida muammolarni izchil tushuntirishdir. Eng muhimi noma’lum, ammo hayotiy, yosh auditoriyada o‘z kuchini sinab ko‘rish, turli istak va g‘oyalarni kashf etish uchun ehtirosli istaklarni uyg‘otuvchi kuchdir. Aynan shuning uchun ham ma’ruzaning tuzilishi, uni o‘tkazish uchun o‘qituvchining tayyorgarlik masalasi alohida ahamiyatga ega. Muayyan o‘quv mavzuning mazmuni, tabiat, mantiqiy mohiyati, ushbu auditoriya tomonidan oldingi mavzularni o‘zlashtirish darajasiga, ayniqsa, o‘qituvchining mavzu yuzasidan tayyorgarligi darjasи, o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlariga qarab farqlanadi.

Ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi asosiy qoidalarga rioya etish talab etiladi. Bular: muammo mavzusi va uning rejsi; takrorlash va yangi mavzuni o‘rganish uchun asos bo‘lgan tushuncha va izohlarni umumlashtirish; yangi mavzu (muammo)ni shakllantirish, uning mohiyatini oldindan va ilgari o‘rganilgan mavzular bilan bog‘lab tushuntirish; musiqa pedagogikasi, pedagogik va didaktikg‘oyalar bilan bog‘liq tushunchalarning “bog‘liqligi”; muammo ochib berishda turli hayotiy, emotsiyal, diksiya, o‘qituvchining kommunikativ nutqini ishga solgan holda yondashish. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ushbu muammo bo‘yicha ma’lum bir pozitsiyasini ifodalash uchun mavjud tajribaga tayanib “proaktiv”, “prognostik reja” dan foydalangan holda o‘z pozitsiyasini belgilash; yangi tushuncha va izohlarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida jalg etish, kasbiy tahlil, uning mohiyat va mazmunini san’at, musiqa qo‘sishchilik, musiqa pedagogikasining muayyan muammosiga asosli yondashuv asosida namoyish etish; bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan olingan konsepsiyaning pedagogik va kasbiy tayyorgarligi uchun ahamiyatini baholash; keyingi mashg‘ulot uchun vazifalar, mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun asosiy va qo‘sishchilik adabiyotlar tavsiya etish.

Umuman olganda ma’ruzaga tayyorgarlik ko‘rish, tayyorlash va uni o‘tkazish uchun yuqorida tavsiya qilingan mantiqiy “reja” asosida bilish jarayoni mantiqiy aks ettiriladi. Allaqachon ma’lum bo‘lgan materiallar ko‘rib, tahlil etilib, yangi kuzatuvlar asosida “idrok-tafakkur” hamda yangi berilayotgan kasbiy bilim mohiyatini umumiyl shaklda bilish uchun “idrok etib fikrlash”, “g‘oyibona fikrlash” va kasbiy tahlil “amaliyot” jarayonida orttirilgan bilim to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita amaliy qo‘llanadi.

Mazkur umumiy mulohazalardan xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash joizki, ma'ruza mashg'ulotlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarinikasbiy tayyorlashning muhim va dastlabki shakli hisoblanadi. Uning asosiy vazifalaridan biri talabalarga pedagogik, kasbiy va ijodiy faoliyatining ahamiyatli jihatlarini ochib berish, unga qiziqish uyg'otishdir. Ma'ruzalarda uning mohiyati haqidagi nazariy fikrlar, faktorlar, metodologik tahlilni amaliy bilish asoslari bayon etiladi. Shunday qilib, ma'ruza bo'lajak musiqa o'qituvchisining yaxlit kasbiy tayyorgarligining barcha jihatlarini – motivatsion, informatsion va operatsion jihatlarini takomillashuvini ta'minlaydi.

O'qitishning bu shakli bo'lajak mutaxassislarning pedagogik va kasbiy tayyorgarlik darajasi, individual va shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda jamoaviy va individual mustaqil faoliyatlarining kombinatsiyasiga asoslanadi. Seminarva amaliy mashg'ulotlar jarayonida har bir talaba bilan chuqurroq aloqalar o'rnatish, ularning kasbiy tayyorgarligining barcha jihatlarini takomillashtirish uchun haqiqiy imkoniyat mavjud. Shu sababli ham quyidagi holatlarga aniqlik kiritish juda muhimdir: 1) bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyat turiga motivatsion va qiymat munosabati darajasi; 2) har bir kasbiy faoliyat tahlilining mohiyati, tuzilishi, asosiy tamoyillari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish darajasi; 3) mazkur tahlilni maxsus tashkil etilgan tadbirlarda amalga oshirish uchun avvaldan olingan ko'nikma va tajribalarning sifati haqida fikr; 4) bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi ahamiyatli tomoni shundaki, unda muammoni kasbiy tahlil etishda ijodiy fikrlar va amaliy faoliyatni aks ettirish va takomillashtirish qobiliyati. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining fikrashi, faoliyatining barcha tarkibiy qismlari mazmunining umumiyligi, uning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda seminar-amaliy (yakka, kichik guruhli) va laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni o'ta muhim bo'lib, o'rganilayotgan mavzuning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishning real shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda kasbiy-ijodiy va pedagogik ahamiyati bilan ajralib turadi. Seminar-amaliy va laboratoriyamashg'ulotlarining umumiyl dramaturgiysi aniqlanadi, o'quv materiali va ish usullari ko'rsatiladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ta'lim jarayonini tashkil etishning u yoki bu shaklining ko'p variantlaridan seminar-bahs, kasbiy-ijodiy va pedagogik qidiruv o'yini shaklidagi seminar, seminar-konferensiya, seminar-trening kabi turlari farqlanadi. Umumiy belgilar bilan bir qatorda mazkur muammoli o'qitish shakllarining mavjudligi, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mustaqil ta'limga faol jalb etish, egallangan kasbiy bilim va kasbiy faoliyat usullarini amaliy-ijodiy jihatdan mukammal egallashlari, taqdim etilgan variantlarning har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, munozarali seminar-amaliy (yakka) va laboratoriya mashg‘ulotlari muammoning jonli ijodiy muhokamasini oldindan shakllantirilgan savol va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Seminar-amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining bu kabi turlari eng avvalo ko‘proq improvizatsiya, ijroviy ahamiyatga ega bo‘lib, u tarkibiy va asosli moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi, chunki uni o‘tkazish mantiqi o‘quv jarayonining bevosita borishini taqozo etadi. Bu, albatta, kasbiy tayyorgarlik zaruriyatini qondiradi xolos. Biroq, muhokama uchun zarur bo‘lgan o‘quv materialini tanlash muammosini to‘g‘ri tashkillashtirishdan tashqari, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlariga hissiy-qadriyatli, kasbiy-ijodiy munosabatni rag‘batlantiruvchi tadbirlar hajmini aniqlash, ularning har birini ushbu muammoni muhokama qilish jarayoniga kiritish imkoniyatini ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Seminar-amaliy va laboratoriya dars jarayonining muhim o‘ziga xos vositalaridan biri kasbiy-ijodiy va pedagogik shart-sharoitlar shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Bunday hollarda, o‘quvta’lim va musiqiy pedagogik ta’lim jarayoni ishtirokchilarini turli guruhlarga bo‘linib, ijodiy muloqotga kirishadilar. Unda muammo batafsil muhokama qilinadi va o‘quv-pedagogik ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy pozitsiyasi ochiladi. Bunday pedagogik sharoit davomida jamoalarning har biri ma’lum bir nuqtai nazarni himoya qiladi.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etish va takomillashtirish muammosiga alohida e’tibor berish, uning kognitiv va kommunikativ kuchini ta’minlaydi. Muhokama markazida turgan muammoni hal etish borasida, bir qator taqdim etilgan fikr va yondashuvlarni baholash imkonи yaratiladi. Professor-o‘qituvchi asosan bu yerda shunchaki “hakam” vazifasini o‘taydi. Shakllantirilgan guruh (jamoa)larning ijodiy harakatlari va natijalarini kuzatib boradi va ularni xolisona baholaydi. Yaratilgan kasbiy-ijodiy va pedagogik shart-sharoitlar mazkur jarayonda jo‘shqinlik va kasbiy-ijodiy faoliy muhitini takomillashtiradi.

Seminar-konferensiyada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini oldindan tayyorlangan ma’ruza va aniq bir muammo yuzasidan ma’ruzalar bilan chiqishlari bilan ajralib turadi. Bunday darslarni o‘tkazishda, albatta, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini yetarli darajada bilim, tajriba, malaka va kompetensiya zaxirasiga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Seminar-amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining bu turi pedagogik nazoratning bir turi vazifasini bajaradi. Chunki, u ilgari o‘tilgan yo‘nalishlardan foydalaniib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini orasida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish dinamikasini kuzatib borish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish mazmuni ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari seminar-amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazishning psixologik, pedagogik shart-sharoitlarini hamdakasbiy tayyorgarlikning o‘ziga xos jihatlarini belgilab qolmasdan, balki o‘qitishda

muayyan pedagogik talablarni qo‘yadi. Ushbu talablarga muvofiq seminar-amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida, avvalo, shunday pedagogik shart-sharoit, muhit yaratish kerakki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi dars mashg‘ulotlariga jiddiy, chuqur munosabatda bo‘lib, ayni paytda o‘zini erkin his qilsin.

Auditoriyada dars mashg‘ulotlari davomida guruhdagi bir talabaga vazifa berilgandan so‘ng, qolganlari keyingi savolga javob berish uchun tayyorgarlik bilan band bo‘lgan holatlarni o‘rgatish kerak. Seminar mashg‘ulotlarni o‘tkazishning bu tartibi bizning nuqtai nazarimizdan qabul qilinishi an’anaviydir. Biroq, bu jarayonni o‘zgartirish vaqtি keldi. Chunki, u ko‘pincha ijodiy emas, balki seminarda rasmiy muhit va talabalarning rivojlanishi uchun ijobiy natijalar olishni sekinlashtiradi. Bunday hollarda o‘qituvchining o‘zi talaba shaxsiga ishonch bildirishi, o‘z xatti-harakatlari bilan unga o‘quvchining fikr va tuyg‘usini faollashtiruvchi “vositali kuch” bo‘lishi va uni yetaklay olishi zarur. O‘qituvchining mavzularni o‘zlashtirishga bo‘lgan shaxsiy va ijodiy munosabati bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tomonidan bir xil munosabatni faollashtirishda muhim omil bo‘ladi. Ayniqsa, ularning shaxsiy pozitsiyasini namoyon bo‘lishi, motivatsion va rag‘batlantiruvchi munosabati yuqori daraja bilan birga har qanday mavzuni o‘qitishda muvaffaqiyatni ta’minlashning asosiy shartdir. Seminar-amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda javoblar mazmunini diqqat bilan kuzatib borish va muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha auditoriyada jonli ijodiy babs tashkil etishga sabab topishga harakat qilish lozim. Bu esa bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining mazkur jarayonga faol munosabatini tashkil etishning muhim va o‘ta zarur omillaridan biridir. Shular bilan birgaolingga natijalarni baholash uchun o‘qituvchining ularga nisbatan shaxsiy pozitsiyasi borligiga ishontirish kerak. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tomonidan keltirilgan ma’lum bir dalillar asosida o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga o‘rganishlari lozim. Muayyan masalani ko‘p qirrali, batafsil, chuqur ongli dalillash ularning kasbiy tafakkuri va umuman faoliyatining muhim ko‘rsatkichi ekanligiga ularni imkon qadar ertaroq ishontirish muhimdir. Bundan tashqari, seminar dars mashg‘ulotlari davomida talabalar o‘z bilimdonligini to‘liq namoyon etish, ilmiy va ijodiy sohalardan ilgari to‘plangan bilimlarni o‘zlashtirish va ularni muhokama qilinayotgan muayyan muammo doirasiga jalb qilish imkoniyatiga ega. O‘qituvchi, albatta, mazkur intilishlarni har tomonlama muhokama qilib, talabalar orasida rag‘batlantirib borishi lozim.

Talabalar seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishda ijodiy yondashuvni namoyon etish va takomillashtirish uchun keng pedagogikimkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar “javob berish”, u yoki bu savolni tanlash, mustaqil o‘rganish yokiqaysi bir material ustida to‘xtalib o‘tish va hokazoni tashkil etadi. O‘zbek xalq musiqa ijodi fanining boshqa

fanlardan aynan tadqiqot mavzusi bo'yicha afzalligi yoki yangiligi bilan sezilarli darajada farq qilishining asosiy sababi, deyarli har bir mavzu talabaning e'tiborini faqat bitta fanga va uni tushunishga qaratadi. Bu yerda dastlab turli fanlarga oid bilimlar bilan faoliyat yuritish va ularni bir-biriga bog'lay olish zarur. Va bu juda qiyin. Ba'zi talabalar darhol muammoning mohiyatini tushunadilar va o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muvaffaqiyatli qo'llaydilar. Tabiiyki, ularning mazkur fanga bo'lgan qiziqishi o'zini tezroq namoyon qiladi. Boshqa talabalarning esa bu sharoitda ko'nikishi uchun bir oz vaqt kerak bo'ladi. Ular uchun fikrlash yangi usul va uslub hamda yana uning operatsion o'zlashtirishida boshqa fanlarning "zaif" nuqtalari yuzaga keladi. Bunday pedagogik sharoitda talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish majburiy komponent sifatida yuzaga chiqadi. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadi-ki, bunday holat yaxshi natijalarni bermaydi, faqat mavzu yuzasidan ko'proq o'rganish va o'zlashtirish oson bo'lgan pedagogik imkoniyatlardan foydalanishni taqazo etadi.

Aytish joizki, seminar-amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tegishli bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashtirishdir. Biroqayni paytda, egallangan bilim bu "maqsad" emas, balki ma'lum bir kasbiy sohada keyingi faoliyatni amalga oshirish uchun kompetensiyalar majmuidir. Mazkur holatdan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, olib borilgan tahlilning o'zi ham bir vosita, biroq uning kasbiy-ijodiy va transformatsion tarzda almashtirilishi qiyin bo'lgan komponentlardan biridir. Zero, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining qo'shiq ijrochiligi vositasida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida nafaqat muhim bilimlarga ega bo'ladi, balki kasbiy-amaliy va ijodiy takomillashuvni ham oladi. Bunda ular "o'z-o'zini faollashtiradi".

Albatta, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda aynan xalq qo'shiqlari vosita sifatida olinishi borasida olib borilgan tadqiqotlar salmog'i kam bo'lishiga qaramasdan, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog'liq ijodiy jarayonga o'zlarini jalg qiladigan shaklga aylandi. Ta'lim jarayonining avvalgi shakllari mazmunini tavsiflab, bo'lajak musiqa o'qituvchilaribidan o'tkaziladigan ayrim alohida pedagogik shakllarning ahamiyatiga bir necha bor to'xtalib o'tdik. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini pedagogik qo'llab-quvvatlashda tubdan muhim vazifalar bajarilganligini tahlil qilib chiqaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva B.S. Sovremennye tendensii v podgotovke pedagogicheskix kadrov // Akademik Siddiq Rajabov o'qishlari: Talabalarning IV an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari / Ped. fanlari doktori, professor

D.I.Ro'zieva umumiy tahriri ostida. 2018 yil 18 may. – Toshkent: TDPU, 2018. – 6-10 b.

2. Abdullaeva Sh.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... avtoref. – Toshkent, 2005. – 31 b.
3. Abduraxmon Jomiy. Risolai musiqiy. – Toshkent: Fan, 1997. – B. 310.
4. Gafurbekov T.B. Ob obrabotkax uzbekskogo pesennogo folklora. V.ki: Problemy muzikalnouzbekstane kultury narodov, Turkmenii i Tadjikistana. – Moskva: Muzika. 1976. – S. 133-207.
5. Isyanov R.G. vaboshqalar. Oliyta'limmuassasalari professor-o'qituvchilarining malakasinio shirishtexnologiyalari. Monografiya. Toshkent, Fan. 2011. – B. 154
6. Kamalova D.I. Ideyno-nravstvennoe vospitanie podrostkov sredstvami muzikalnogo iskusstva: Avtoref.dis. ...kand.ped.nauk.–Toshkent, 1990. – 17 s.
7. Karomatov F.M. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent, O'qituvchi. 1981. – B. 27-34
8. Karomatov F.M. O'zbek xalq musiqasi merosi. // XX asr. Terma, yalla, karsak, kirish maqolasi. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985. – B. 2-23
9. Karomatli F. Markaziy Osiyo xalqlari musiqasida afsona va rivoyatlarda. // J.Canat/ 1999/ №3 / – B. 39-42.
10. Liber Mafatih al-olum expicans vocabula scientiarum. Autore Abu Abdullah Mohammad ibn Yusuf al-Katib al-Khowarazmi, Leiden, 1895.
11. Mavlanov Sh.M. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ma'naviy transformatsiyasi: Siyosiy fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) dis. – Toshkent, 2018.
12. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Toshkent, Fan, 2004
13. Panjiev Q. O'zbek marosim qo'shiqlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Zamonaviy ta'lim. №6 2016 y. Toshkent, – B. 46-52.
14. Petrushin V.I. Muzikal kalkaya psixologiya. – Moskva, 1994. – S. 304.
15. Romanova S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy an'analari asosida bulajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2005. – B. 221.
16. Romanovskaya Ye.E. Xorezmiskaia klassicheskaya muzika. – Toshkent: Uzfimgiz, 1934.